

MORFOLOGIK VOSITALAR TARIXIY VA ARXAIIK SHAKLLARINING SHE'RIY MATNDA QO'LLANILISHI

Yusupova O.S.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU f.f.n., dots.

Usarova A.

2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15621564>

Annotatsiya. Ushbu maqolada morfologik vositalarning tarixiy va arxaik shakllarining she'riy matnlarda qo'llanilish sabablari o'r ganilgan. Bu shakllarning emotsiyal-ekspressivlikni ta'minlash, poetik individuallikni hosil qilish, tantanavorlik, matnga o'zgacha tus berish va tilimizning turli imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun hozirgi zamon she'riyatida ishlatalishi misollar bilan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: poetik individuallik, kelishik, zamon, mayl shakllari, fe'lning vazifa shakllari.

THE USE OF HISTORICAL AND ARCHAIC FORMS OF MORPHOLOGICAL MEANS IN POETIC TEXTS

Abstract. This article explores the reasons behind the use of historical and archaic forms of morphological means in poetic texts. These forms are analyzed with examples from contemporary poetry in terms of their role in enhancing emotional expressiveness, creating poetic individuality, adding solemnity, giving a unique tone to the text, and revealing various expressive possibilities of the language.

Keywords: poetic individuality, case, tense, mood forms, functional forms of the verb.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ И АРХАИЧЕСКИХ ФОРМ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПОЭЗИИ

Аннотация. В статье рассматриваются причины использования исторических и архаичных форм морфологических приемов в поэтических текстах. На примерах анализируется использование этих форм в современной поэзии для обеспечения эмоциональной выразительности, создания поэтической индивидуальности, придания торжественности, придания тексту неповторимого колорита, раскрытия различных возможностей нашего языка.

Ключевые слова: поэтическая индивидуальность, согласование, время, словоизменительные формы, функциональные формы глагола.

Bilamizki, so'zlar kabi grammatic kategoriya va shakllarning ham tarixiy va arxaik variantlari mavjud. Bu shakllarning ayrimlari butunlay tilimiz tarixdan joy olgan va bugungi kunda mutlaqo qo'llanilmaydi. Bu shakllarni faqat o'sha davrlarda yozilgan asarlardagina kuzatish mumkin. Biroq ayrim tarixiy shakllar borki, she'riy matnlarda turli talab bilan qo'llanilmoqda.

Bunga kelishik, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat, fe'lning vazifa shakllari, to'liqsiz fe'llarning, qo'shimcha ko'rinishdagi yuklamalarning arxaik va tarixiy shakllarini misol qilib keltirish mumkin. Maqolada shu shakllarning ayrimlarining she'riy matnda uchrashi va lingvopoetik vazifalarini o'r ganishga harakat qildik.

1. Qaratqich kelishigining tarixiy shakllaridan biri -im qo'shimchasi bo'lib, tarixan I shaxsdag'i egalik qo'shimchasi bilan shakldosh bo'lgan. Bu haqida manbalarda quyidagicha fikr bildiriladi: "...qaratqich kelishigining qo'shimchasi sifatida -im ham ishlataladiki, bu qo'shimcha odatda men, biz degan kishilik olmoshlariga qo'shiladi: menim yoki manim, bizim [Hamdamov J., 2003: 19]. J.Hamdamov mazkur qo'llanmada kishilik olmoshlarining I shaxs birlik yoki ko'pligiga qaratqich kelishik qo'shimchasining -im shaklida qo'shilishi XIII-XIV asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida uchrashini, bu shakl aslida o'quz guruhidagi turkiy tillarga mansub bo'lganligi, hozir ham turk, ozarbayjon, turkman kabi o'g'uz tillarida adabiy me'yor sifatida faol ishlatalishini aytib o'tadi [Hamdamov J., 2003: 19]. Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida bu vosita muhim stilistik vazifa bajaradi. Masalan, A.Oripovning "O'zbekiston" qasidasidagi har bandda takrorlanuvchi misrada qo'llanilgan manim so'zi nafaqat, qofiya talabi bilan qo'llanilgan, balki bu vosita she'rga tantanavorlik, o'zgacha ifoda, ruh baxsh etgan:

Faqat ojiz qalamim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim.

Aytgum, bu kun, u manim, manim,

O'zbekiston, Vatanim manim.(A.Oripov. Tanlangan asarlar. IV jildlik. 1-jild, 178-bet).

Ba'zi hollarda egalik va kelishik o'rtaida bir tovushning orttirilishi ham tarixiy holatdan kelib chiqqan:

O'n sakkiz ming olam oshubi padar boshindadir,

Ne ajab, chun o'g'li oning o'n sakkiz yoshindadir (E.Vohidov. Saylanma. 1-jild. "Ishq savdosi", 199-bet).

Jo'nalish kelishigining eski o'zbek tilida qo'llanilgan [Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 91] -g'a, -a shakllari sher'iyatda shu vazifada qo'llanilmoqda:

Xiyla kech tushibdi sevaylik desak,

O'g'ri oralabdi bog'-u ravona.

Chinniday ro'yodan eshitdik -cho'pchak

Xiyla begonamiz, bilsak, jahona (A.Qutbiddin. "Bor", 162).

Mazkur she'rda qofiya talabi bilan ham jo'nalish kelishigining -a shakli qo'llanilmoqda.

Chunki oxirgi bandda ham zamona va devona so'zlar qofiyadosh so'z vazifasida kelgan.

Demak, shoir ma'lum maqsad bilan bu shaklning tarixiy variantini qo'llagan.

Hozirgi zamon she'riyatida fe'l so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalar va vositalarning tarixiy va arxaik shakllari badiiylikni ta'minlash, nutqqa ko'tarinki ruh bag'ishlash, emotsiyal-ekspresivlikni oshirish uchun boshqa so'z turkumlariga xos grammatik birliklarga nisbatan faol qo'llaniladi. Masalan, harakat nomining eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan -mak shakli barcha shoirlarimiz ijodida uchraydi:

Mumkindir chaqmoqni tish bilan tutmak,

Til tishlab, dunyoni ko'z bilan yutmak,

Jarayon kelmakdur, mohiyat — ketmak,

O'zungdan o'tmak bu — Ollohga yetmak. (E.Vohidov. Saylanma. 1-jild. "Ishq savdosi", 108-bet).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida harakat nomining -sh, -ish shakllari egalik qo'shimchasin olib turlansa, eski o'zbek adabiy tilida harakat nomining barcha shakllari egalik qo'shimchalarini

olib turlangan. Barmag‘im (barmaq+im), kelmagim (kelmak+im). Hozirgi zamon adabiy tilimizda harakat nomiga jo‘nalish kelishigining -qa, -ka shakllari qo‘silsa, tilimiz tarixida –a shakli qo‘silgan: bormag‘a, kelmaka kabi [Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 172]. Eski o‘zbek tilida *-moq*, *-mak* affiksli harakat nomi kesim vazifasida kelganda ot-kesim xarakterida bo‘lib, unda zamon, shaxs son qo‘sishimchalari emas, balki *-dir*, *-dur*, *turur*, *durur*, *bo‘lmoq* bog‘lamalari qo‘silgan [Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 175]. Bu bog‘lamalar ma’lum kelishik shaklidagi harakat nomiga ham qo‘silgan. Bu shakldan ham shoirlarimiz individuallikni hosil qilish uchun unumli foydalanishadi:

Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg
Titramog‘im boisi ul
Bargni tebranmog‘idir (E.Vohidov. Saylanma. 1-jild. “Ishq savdosi”, 130-bet).
Pichirlab ovozing suzmakdadurmi,
Ushatib tashlangan o‘zimmi butkul (A.Qutbiddin. “Bor”, 16-bet).

Eski o‘zbek tilida ham sifatdoshning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon shakllari bo‘lgan.

1. O‘tgan zamon ma’nosidagi sifatdosh shakllari: -mish, -duq, duk, -gan, -kan, -kän, -an, -än, -qan, -g‘on, -g‘u, -gü, -qu, -kü, -g‘uchi, -güchi, -uchi, -küchi, dachi, -dächi, -tachi, -adirk‘an, -ädürgän, -asi, -äsi, -g‘ur, -gür kabi. 2. -r, -ar, -är, -ur, -ür, -yur, -yür, g‘usi, -güchi, -uchi, küchi, -adirk‘an, -edürgän, -aturg‘an, ätürgän kabi [Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 176-186]. Hozirgi zamon she’riyatida bu shakllarning ayrimlari uchraydi. Masalan, quyidagi she’rda o‘tgan zamon sifatdoshining yuqorida shakllaridan biri qo‘llanilgan:

Ey, nodon, deding sen, barmog‘imda cho‘g‘
Bir imo yetarli ko‘tarmog‘ga tug,‘
Oyog‘imni quchib o‘ralgon maysa,
Tur desam turodur, otodur nayza (A.Qutbiddin. “Bor”, 167-bet).

Yoki o‘tgan zamon sifatdoshi *-gan* o‘rnida uning arxaik shakli -mish she’riyatda qo‘llanilib kelishi, o‘ziga xoslik hosil qilishi mumkin:

Taajjub kim solmish uning ko‘ngliga,
Kirmoq qayda hali hayot yo‘liga (E.Vohidov. Saylanma. 1-jild. “Ishq savdosi”, 48-bet).

Tilshunos Y.Tojiyevning olib borgan tadqiqotlarida sifatdosh shakllarining o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlari, ularning sinonimik munosabati yoritib berilgan. Olimning ta’kidlashicha, eng unumli sifatdosh shakli bo‘lgan -gan affaksi alohida holda -mish affiksiga sinonim bo‘lib kela oladi [Тожиев Ё., 1991: 89]. Ammo shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu o‘rinda -mish shaklining emish to‘liqsiz fe‘li bilan aloqasi yo‘q. Buni olim Y.Tojiyev rus tilshunosi I.Kononovdan keltirgan iqtiboslari bilan asoslaydi. Hozirgi o‘zbek tilida –mish formasi –gan shakli bilan sinonim tarzda deyarli ishlatilmaydi. Lekin shu shaklning zamonaviy she’riyatimiz namunalarida ohangdoshlikni hosil qilish va turli xil subyektiv ma’no ifodalashini kuzatdik:

Tosh bag‘rimga toshlar otib, yig‘lay, do‘stlar,
Yo‘qotmishim xudolarni kimdan so‘ray?! (MirzoKenjabek. “Bahorim yellari”).

Buyruq-istik maylining –ay, -gin, -sin, -aylik, -ingiz, -sinlar shakllari hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham qo‘llaniladi. Biroq she’riy matnlarda bu maylining tarixiy shakllari ham kelishi mumkin.

Masalan, I shaxs birlik ma’nosida keladigan -ayin, -ayim, -g‘ayin shakllari, II shaxga nisbatan ishlatilgan -g‘il, -gil, -qil,-kil shakllari, ko‘plikdagi -ayiq, -ayliq, -g‘alim, -galim shakllari hozirda she’riyatda poetiklashgan va tantanavor ruh, ta’sirchanlikni ifodalash uchun ishlatiladi [[Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 205].

Sen munis g‘unchani shimirib turgil,
Aning qiyomini shopirib turgil,
Ochilma, men uchun yumilib turgil,
Balo-yu qazoday kelayapman man (A.Qutbiddin. “Bor”, 154-bet).

Zamon shakllarining tarixiy ko‘rinishlari bir qancha bo‘lib, hozirgidek uch zamon shakllari bo‘lgan. Eski o‘zbek tilida o‘tgan zamon qo‘srimchalariga ermish, erdi, erkan, ekan shakllari qo‘shilgan. -mish erdi (kelmish erdi) kabi. Hozirgi zamon shakllari -b,-ur,-ür qo‘srimchalarini bo‘lib, ularga shaxs-son qo‘silib, gapda kesim vazifasida kelgan. Eski o‘zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe’li -r, ar, -är, -ur, -ür shakllari bilan yasalgan. Bu shakllar hozirda ham she’rlarda mavjud [Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q., 2008: 258-259].

Haqiqatan ham, bu shakllar she’riyatda turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Masalan, hazil ruhida yozilgan E.Vohidovning quyidagi to‘rtligida -ur shakli she’rning ohangdorligini ta’minlagan.

She’rning sozi — to‘rt satr,
To‘rt ajoyib — zo‘r satr.
Shoir odam o‘zini
To‘rt satrda ko‘rsatur (E.Vohidov. Saylanma. 1-jild. “Ishq savdosi”, 83-bet).

Xullas, morfologik vositalarning tarixiy, arxaik shakllari she’riy matnlarda poetik individuallikni ta’minalash, she’rga o‘ziga xos ruh baxsh etish uchun, vazn, qofiya, ohang talabi bilan qo‘llanilishi mumkin.

REFERENCES

1. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Darslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B.383.
2. Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. II қисм. Тарихий морфология. Биринчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ, 2003. –180 б.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
4. Орипов А. Танланган асарлар. IV жилдлик. 1-жилд. –Тошкент: Faafur Fulom nomidagi Adabiyot va san’yat naşriyoti, 2000. – 432 б.
5. Курбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 132 б.
6. Қутбиддин Абдували. Бор. – Тошкент: Faafur Fulom nomidagi naşriyot matbaa uyi, 2011. –320 б.
7. Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. –Тошкент: Университет, 1991.
8. Воҳидов Э. Сайланма. Ишқ савдоси. 1-жилд. –Тошкент: Шарқ, 2000. -416 б.
9. Islamova, D. (2023). HAMID OLIMJONNING «O‘ZBEKİSTON» SHE’RIDA QO‘LLANILGAN TRANSPOZITIV SO‘ZLARNING USLUBIY VA FUNKSİONAL-

- SEMANTIK XUSUSIYATLARI. 2018, No. 4 (110/1), 110(77), 5-10.
https://scholar.google.com/scholar?cluster=7941994830465779562&hl=ru&as_sdt=2005
10. Yusupova, O. S. (2021). People's oral creative work and syntactic parallelism. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3), 242-246.
https://scholar.google.com/scholar?cluster=1316699255889728518&hl=ru&as_sdt=2005
 11. Karimov, S. A., Yusupova, O. S., & Umirova, S. (2020). Linguopoetic features of syntactic repetition in poetry. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 333-336.
 12. https://scholar.google.com/scholar?cluster=3116520016717462205&hl=ru&as_sdt=2005